



Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 9-sinf

21.10.2024


1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. Quyidagi qaysi daryo shimoliy tropik chizig'ini kesib o'tmagan?
A) Iravadi daryosi B) Nil daryosi C) Hind daryosi D) Gang daryosi
2. Quyidagi qaysi shaharda aeroport mavjud emas?
A) Jizzax B) Namangan C) Zarafshon D) Termiz
3. Davlat boshqaruvining prezidentlik respublikasi shakli qaysi qit'alarda keng tarqalgan?
A) Yevropa va Avstraliya B) Afrika va Osiyo C) Osiyo va Yavropa D) Afrika va Amerika
4. Qaysi shahardagi kombinatning ishlab chiqarish faoliyati Ingichka va Qo'ytosh konlari bilan bog'liq?
A) Bekobod B) Chirchiq C) Olmaliq D) Jizzax
5. Oqtov tog'lari quyidagi qaysi tabiiy geografik okrugning shimolida joylashgan?
A) Qizilqum B) Qashqadaryo C) O'rta Zarafshon D) Mirzacho'l
6. Mamlakatimizdagi mehnatda band aholining 8,2%i quyidagi qaysi sohada faoliyat yuritadi?
A) Qurilishda B) Ta'limda C) Sanoatda D) Sog'liqni saqlashda
7. Quruqlikda tabiat zonalarining hosil bo'lishi quyidagilarning qaysi biriga bog'liq emas?
A) Relyefga B) Havo haroratiga C) Albedoga D) Yog'in miqdoriga
8. Iqlim xaritalarida havo bosimi bir xil bo'lgan nuqtalarni tutashtiruvchi chiziqlar nima deb ataladi?
A) Izobaralar B) Izotaxalar C) Izogiyetalar D) Izotermalar
9. Tamaki-fermentatsiya zavodi respublikamizning qaysi viloyatida ishga tushirilgan?
A) Navoiy B) Surxondaryo C) Toshkent D) Samarqand
10. Quyidagi qaysi pasttekislik "kriklar o'lkasi" deb ataladi?
A) Karpentariya B) Markaziy C) Nallarbor D) La Plata

2-qism: Har bir topshiriq 1,7 balldan baholanadi

11. Quyidagi qaysi shaharlarda paxta tozalash hamda yog' sanoati uchun mashina va uskunalar ishlab chiqaruvchi zavodlar joylashgan?
A) Toshkent, Qo'qon, Jizzax, Namangan B) Toshkent, Samarqand, Buxoro, Termiz
C) Toshkent, Farg'ona, Navoiy, Andijon D) Toshkent, Andijon, Samarqand, Kattaqo'rg'on
12. Berilgan rasm quyidagi qaysi qonuniyatni o'zida namoyon etadi?

Sh → J



- A) Sektorlik B) Koriolis kuchi C) Balandlik mintaqalanishi D) Zonallik





Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 9-sinf


21.10.2024

13. Quyidagi rasmda alohida rang bilan belgilangan hududlar qaysi tabiat zonasida joylashgan?



- A) Balandlik mintaqalari
B) Savanna va siyrak o'rmonlar
C) Chalacho'l va cho'llar
D) Qattiq bargli doimiy yashil o'rmonlar va butazorlar


14. Quyidagi rasmda qaysi harf bilan ko'rsatilgan chiziq daryoning bir qismini ifodalaydi?



- A) C
B) A
C) D
D) B

15. Samolyot bosh meridiandan ekvator bo'ylab g'arbga qarab uchadi va 300 km masofani bosib o'tdi. U quyidagi rasmda ko'rsatilgan qaysi zonaga yetganligini aniqlang.

- A) D zonaga
B) C zonaga
C) A zonaga
D) B zonaga






Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 9-sinf

21.10.2024

16. Samarqandda soat kunduzgi 9:30 bo'lsa, 125° sharqiy uzunlikda joylashgan shaharda soat necha bo'ladi?
A) 15:30 B) 6:30 C) 13:30 D) 8:30
17. Marakaybo ko'li vujudga kelishiga ko'ra qanday ko'llar guruhiga mansub?
A) Tektonik B) To'g'onli C) Morena D) Laguna
18. Koreya yarimoroli, Xonsyu va Xokkaydo orollari oralig'ida joylashgan dengiz nomini belgilang.
A) Sariq dengiz B) Oxota dengizi C) Yapon dengizi D) Janubiy Xitoy dengizi
19. Quyidagilar orasidan Farg'ona tizmasidan boshlanuvchi daryolar to'g'ri berilgan qatorni belgilang.
1) Kosonsoy; 2) Ko'gart; 3) Isfara; 4) Norin; 5) Yassi; 6) Aravansoy; 7) Moylisuv; 8) Qorao'ngur; 9) Oqbura; 10) Chodaksoy.
A) 2, 5, 7, 8 B) 3, 5, 6, 9 C) 1, 4, 6, 8 D) 1, 2, 7, 8
20. Cho'llar hosil bo'lishiga ta'sir etuvchi okean oqimlari quyidagi xarita-sxemada qaysi sonlar bilan ko'rsatilgan?



- A) 4, 14, 16 B) 3, 5, 11 C) 2, 5, 14 D) 11, 18, 23

3-qism: Har bir topshiriq 2,4 balldan baholanadi

21. Quyidagilar orasidan ham yirik shoxli qoramollar soniga, ham sigirlar soniga ko'ra respublikamizda bir xil o'rinda turuvchi viloyatlarni ajrating.
1. Andijon; 2. Buxoro; 3. Qoraqalpog'iston; 4. Toshkent; 5. Namangan; 6. Navoiy; 7. Qashqadaryo. 8. Surxondaryo; 9. Jizzax; 10. Sirdaryo; 11. Xorazm; 12. Farg'ona; 13. Samarqand.
A) 3, 8, 12, 13 B) 2, 4, 11, 13 C) 1, 2, 5, 10 D) 1, 7, 9, 12






Olimpiada topshiriqlari (tuman bosqichi) Geografiya fani 9-sinf


21.10.2024

22. Quyidagi ma'lumotlar asosida Eyler-Venn diagrammasiga mos tushadigan to'g'ri javobni toping.


I		Mis
II	nikel	a) bronza
III	aluminium	b) latun
IV	qalay	c) duraluminiy
V	ruk	d) melxior




A)



B)



C)



D)

23. O'rta Osiyo tog'larining shimoliy yonbag'irlarida tog' etagidan yuqoriga ko'tarilgan sari tuproq tarkibidagi chirindi miqdori Nuqtalar o'rniga mos javobni qo'ying.

A) o'zgarmaydi

B) kamayadi

C) ortadi

D) zichlashadi

24. O'zbekiston daryolari va ularning suv sarfi o'lchanadigan joylari mos ravishda ko'rsatilgan javobni belgilang.

No	Daryolar		Qishloqlar
1	Chirchiq	a	Turk
2	Qashqadaryo	b	Xo'jakent
3	Surxondaryo	c	Qorovultepa
4	Ohangaron	d	Varganza

A) 1-b, 2-d, 3-c, 4-a

B) 1-a, 2-b, 3-c, 4-d

C) 1-b, 2-c, 3-d, 4-a

D) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b

25. Berilgan geografik obyekt 45° janubiy kenglik, 129° sharqiy uzoqlikda joylashgan. Mazkur obyektidan Shimoliy qutbgacha bo'lgan masofani kilometr hisobida aniqlang.


A) 4 999,5 km

B) 1 914, 5 km


C) 9 999 km

D) 14 998,5 km


26. Quyidagi qaysi rasm Grenlandiya oroli uchun xos?




A)



B)



C)



D)

27. Quyidagilar orasidan toshli, ya'ni gipsli cho'llar tarqalgan hududlarni belgilang. 1) Orolbo'yi Qoraqumi, 2) Ustyurt, 3) Qorsoqboy, 4) Mo'yinqum, 5) Betpaqdala, 6) Mang'ishloq, 7) Keles tekisligi.

A) 2, 3, 5, 6


B) 1, 2, 3, 4

C) 2, 3, 4, 6

D) 1, 2, 5, 7




28. Berilgan rasmda Yer yuzi iqlimidagi doimiy maksimum va minimumlar qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?




- A) 1, 3, 7, 10 B) 4, 5, 7, 9 C) 2, 3, 5, 8 D) 1, 3, 6, 7

29. Terrigen yotqiziqlar to'planmaydigan joylar rasmda qaysi harf bilan belgilangan?



- A) D, A B) F, C C) G, D D) J, A

30. Baliq ko'p ovlanadigan va suvo'tlar yig'ib olinadigan dengizlar rasmda qaysi raqamlar bilan ko'rsatilgan?



- A) 1, 3, 4 B) 1, 5, 6 C) 2, 7, 8 D) 3, 5, 6

9-sinf Geografiya – 21.10.2024

KALITLAR:

1-qism: Har bir topshiriq 0,9 balldan baholanadi

1. C
2. A
3. D
4. B
5. C
6. B
7. C
8. A
9. D
10. B

2-qism: Har bir topshiriq 1,5 balldan baholanadi

11. D
12. B
13. D
14. A
15. B
16. C
17. D
18. C
19. A
20. B

3-qism: Har bir topshiriq 2,6 balldan baholanadi

21. C
22. A
23. C
24. A
25. D
26. B
27. A
28. C
29. B
30. A